

Bizning eng katta ishonchimiz, madad - tayanchimiz bu, o'sib kelayotgan yosh avlodimizdir!

Islom KARIMOV

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2011-yil
11-iyul
N:28
(66829)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi



*O'zbek futboli tarixida
yangi sahifa ochildi*

7-bet

XAZONLARNI YOQISH MUMKINMI?

Bu savolga barchangiz bir ovozdan «Yo'q!» deya javob berishingizga aminman. Lekin hozirjavoblik qilishga biroz shoshilmang. Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining 3-bosqich talabasi, istiqloq tengdoshi Jahongir Shukurovning «Xazonlarni qayta ishlash orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarish» bo'yicha tuzgan loyihasi bilan tanishib chiqsangiz, fikringizni albatta o'zgartirasiz.

Istiqloq tengdoshi

Xabar qilganimizdek, Jahongir «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» munosabati bilan o'tkazilgan «Talabalarning eng yaxshi innovatsion loyihasi» tanlovi g'olibi bo'ldi.

Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish maqsadida o'tkazilgan mazkur tanlovda ishtirok etishni Jahongir «Bankekspo - 2011» ko'rgazmasiga borganida, diliga tugib qo'ygan edi. «Xazonlarni qayta ishlash orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarish»ga doir loyiha tuzib, bu borada jiddiy izlanishlar olib bordi. Aslida xazonlar bilan bog'liq muammo uni anchadan buyon o'ylantirib kelardi. Ayniqsa, yoqilgan xazon tutunining inson salomatligiga salbiy ta'siridan jiddiy xavotirga tushardi.

May oyida bo'lib o'tgan «Eng yaxshi innovatsion biznes g'oya» tanlovida muvaffaqiyatli qatnashib, 3-o'rin sohibi bo'lgani va bu borada orttirgan tajribasi unga qo'l keldi. Loyihaning asosiy maqsadi - daraxtlardan tushadigan xazonlarni qayta ishlash orqali xoda ko'rinishida tayyor mahsulot ishlab chiqarishdan iborat edi. Bu esa o'z navbatida, xazonlar bilan bog'liq muammoni hal etibgina qolmay, ular yordamida bozorga tayyor mahsulot olib chiqish imkonini ham beradi.

(Davomi 2-betda)

«QO'NG'IROQCHA» BAG'RIDA



Sirg'ali tumanidagi 322-maktab qoshida ochilgan «Qo'ng'iroqcha» bolalar oromgohida tumanimizdagi 284-, 300-, 301-, 317-, 322-sonli umumta'lim maktablar o'quvchilari maroqli dam olishyapti. Bu yerda stol tenisi, shaxmat-shashka, «Mohir qo'llar» to'garaklari tashkil qilingan.

Kutubxona muntazam ishlab turibdi. Mustaqilligimizning 20 yilligi oldidan «Buyuk va muqaddassan, Mustaqil Vatan!» shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, rasm chizish musobaqalari o'tkazildi. «Ertaklar - yaxshilikka yetaklar» mavzusida guruhlararo musobaqa bo'lib o'tdi. Hozirda oromgohda 125 nafar o'quvchi hordiq chiqarmoqda.

O'z muxbirimiz

O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga nomzodlar

Adabiyotimiz rivojida taniqli yozuvchi va ulkan tarjimon Nosir Fozilovning xizmatlari katta. U kishi bolalar adabiyoti rivojiga, tarjimachilikning yuksalishiga, o'zbek va qozoq adabiyotidagi adabiy do'stlikni mustahkamlashga salkam oltmish yildan buyon samarali hissa qo'shib kelayotir. Nosir aka ish va ijodiy faoliyatini bolalar nashri – «Gulxan» jurnalida boshlagani hamisha faxr bilan eslaydi. «Shu tahririyatda men adabiy xodim, bo'lim mudiri, mas'ul kotib bo'lib ancha yillar ishladim. Mazkur jurnal mening bolalar yozuvchisi bo'lib shakllanishimga katta ta'sir ko'rsatdi... Buning uchun ham «Gulxan» jurnalidan, uning mehribon jamoasidan, ayniqsa, meni lutfan taklif qilgan Saida opa Zunnunovadan bir umr minnatdorman.



Siyoyev («Yassaviyning evarasi») singari xotira, maqola va voqeyi hikoyalarda ular hayoti va ijodining ahamiyati, o'ta noyob qirralari, o'quvchilarga noma'lum bo'lgan ibratli voqealar mahorat bilan yozilgan.

Adibning birinchi hikoyasi 1953-yilda bosilgan bo'lsa, birinchi kitobi 1959-yilda «Irmoq» nomi bilan chop etilgan. Shundan so'ng uning «Oqim», «Robinzonlar», «Qush qanoti bilan», «Qorxat», «Ko'klam qiyoslari», «Diydor», «Ustozlar davrasida», «Saron», «Ustoz so'zlaganda...» singari o'nlab kitoblari nashr etilib, ularning har biri yozuvchiga katta shuhrat olib keldi.

Nosir Fozilovning «Topdim-u, yo'qotmadim» («Sharq» NMAK Bosh tahririyati) xotiralari, voqeyi hikoyalari kitobini o'qisangiz, yozuvchi ijodining yangi qirralari ochiladi. Kitobdan o'rin olgan har bir xotira bebaho xazinadir.

«Ta'zim» xotirasi O'zbekiston xalq yozuvchisi Hamid G'ulomning serqirra ijodi haqida yozilgan. Yana bir el suygani yozuvchi To'gay Murod haqidagi «Ukadek aziz, do'stekd qadrdon edi» xotira-essesi ham maroq bilan o'qiladi. U To'gay Murod o'z asarlarini yozish uchun qanday tayyorgarlik ko'rish jarayonini batafsil ta'riflab, bir o'rinda shunday deb yozadi: «Yozuvchini bamisoli shamchiroqqa o'xshatish mumkin. Shamchiroqqa vaqti-vaqti bilan yog' quyib turmasangiz, piligi kuyib tamom bo'ladi-qoladi. Yozuvchi ham hayotni sinchkovlik bilan kuzatmas ekan, o'z ustida ishlamas ekan, mashq qilmas ekan, haligi aytganimiz chiroq kabi «pis» etadi, o'chadi-qoladi».

Kitobning ibratli jihatlari, zavq bilan o'qiladigan sahifalari o'quvchilarni hayajonga soladi. Ayniqsa, o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mashhur ijodkorlar: G'afur G'ulom («Yaxshilar yodi»), Maqsd Shayxzoda («O'zlaridan so'rsak»), Oybek («Oybek domla»), Abdulla Qahhor («Tanishuv»), «Xarid», «Ulkan adib – mehribon og'a»), Saida Zunnunova («Saida opamiz»), Said Ahmad («Said Ahmad bobo»), Odil Yoqubov («Odil bobo»), Po'lat Mo'min («Bizning Po'lat akamiz»), O'ktam Usmonov («Boqiy umr»), Sa'dulla

NOYOB XOTIRALAR XAZINASI

Bu kitob har jihatdan yoshlarimizga namuna bo'ladi. Ayniqsa, bugun adabiyot maydoniga kirib kelayotgan yosh iste'dodlar uchun o'ziga xos qo'llanma vazifasini bajaradi. Kitobda nomi tilga olingan mashhur ijodkorlarning hayot va ijod yo'li hamisha yoshlarimiz uchun namunadir.

«Bolalar adabiyoti – nozik adabiyot, – deb yozadi Nosir Fozilov so'ng so'z o'rnida. – Bolalar adabiyoti biz bilgan kattalar adabiyotining boshi... Bolalar yozuvchilari o'z asarlari bilan bolalarni katta adabiyotga boshlovchi darg'alar. Bu adabiyot – hurmattalab adabiyot, e'zoztalab adabiyot. Chunki bolalar uchun yozilayotgan har bir asarda o'zing bolaga aylanmasang, u jonsiz tana bo'lib qoladi».

Biz Nosir Fozilovning xoh bolalarga, xoh kattalarga yozgan asarlarini o'qimaylik, unda ijodkorning bola qalbini ko'ramiz. Uning yozganlarida beg'ubor bolalik tafti bilan birga yuksak samimiyat barq urib turadi. Yozuvchining «Topdim-u, yo'qotmadim» kitobi ham samimiyat va mehr mevasi. O'chmas xotiralardan iborat ushbu kitobni adabiyotimizning kichik ensiklopediyasi deyish mumkin. Kitobning O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotiga tavsiya etilganligini har jihatdan qo'llab-quvvatlaymiz. Kitob mazmun-mundariyasi va mohiyati bilan yoshlarning ma'naviy tarbiyasidagi o'ri bilan mukofotga loyiq, deb o'ylaymiz.

Ashurali JO'RAYEV

O'QUVCHI YON DAFTARIGA

Xo'sh, aziz muxlislar, yozgi ta'til bilan bo'lib, sevimli gazetangizni o'qishni unutib qo'yadingizmi? Bugun ham biz sizlarni dunyoning mashhur faylasuflari fikrlari bilan tanishtirishda davom etamiz. Ular to'g'risida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lganingiz har jihatdan yaxshi.

QAYTA TANILGAN EDI

Bu kim, deysizmi? Siz yaxshi bilgan yunon faylasufi Arastu (Aristotel) edi. Hayratga tushmang, uning tarixda qayta tanilgani rost. Siz bilasizki, Arastu miloddan oldingi 384-322-yillarda yashagan. Ilmiy asarlari uzoq vaqt mobaynida uyi yaqinidagi g'orda, keyinchalik muzeyda saqlangan.

Oradan 200 yil o'tib, ya'ni milodning 70-yillarida Sulla ismli sarkarda uning asarlarini o'lja sifatida Rimga olib keladi va bir necha nusxada ko'paytirib tarqatadi.

Kimki insoniyat baxti, saodati uchun mehnat qilar ekan, hech qanday kuch uning nomini va mehnatlarini yo'qqa chiqara olmaydi. Bu doimo yodingizda tursin.



HAQIQIY MO'JIZA

Milodning 354-430-yillarida yashagan Avgustin Avreliydan so'rabdilar:

– Mo'jiza bor narsami?
– Bor narsa, – deb javob beribdi u. – Quyoshning chiqishi haqiqiy mo'jizadir.



MOHIYATNI ANGLAMOQ KERAK

1472-1529-yillarda yashagan xitoylik faylasuf, siyosatdon va harbiy bilimdoni Van Yanmindan do'sti so'rabdi:

– Kitob o'qigandan so'ng, hech narsa yodda qolmasa, nima qilmoq kerak?

Van Yanmin shunday javob qilibdi:

– Uni tushunmoq kerak, yodlash shart emas. Tushunmoq zaruriyati ham ikkinchi darajali narsa.

Eng avvalo, kitobning asosiy mohiyatini anglamoq joiz.



XAZONLARNI YOQISH MUMKINMI?

(Boshi 1-betda)

– Iqtisodiyotimizning yanada jadal rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan bunday mahsulotni ishlab chiqarish 3 bosqichda amalga oshiriladi, – deydi Jahongir innovatsion loyihasi haqida batafsil to'xtalib.

1-bosqich – bu jarayonda mahallalar va jamoat joylaridagi daraxtlardan tushadigan xazonlar yig'ishtirib olinadi.

2-bosqich – yig'ishtirib olingan xazonlar qayta ishlanib, kerakli aralashmalar qo'shish orqali mahsulot

ko'rinishiga keltiriladi.

3-bosqich – mahsulotga yakuniy ishlov berilib, iste'molchilarga yetkaziladi.

70 foizi mahalliy xom ashyo – xazonlardan hamda 30 foizi turli efir ko'rinishidagi aralashmalardan tashkil topgan tayyor mahsulot ishlatish jarayonida hech qanday zaharli gazlar hamda hidlar chiqarmaydi va 2-3 soat mobaynida kuchli olov ko'rinishida yonish xususiyatiga egadir.

Mazkur loyihani amalga oshirishda bevosita korxonada tuzib, uni «FIRE LEAF» MCHJ nomi bilan atamoqchimiz. Uning ustav kapital miqdorini belgilab, bir yil muddatga mo'ljallangan bank krediti olishni rejalashtiryapmiz. Bu ishlarda menga Toshkent axborot texnologiyalari kasb hunar kollejining



3-bosqich talabasi Begzod Mirshamilov yaqindan yordam beryapti.

Loyihamizda ko'rsatilishicha, korxonada 9 ta

universal ishchi xodim uchun ish joyi yaratiladi. Uning shaxsiy WEB sayti yaratilib, kelajakda bu mahsulotlarni nafaqat mahalliy bozorda sotish, balki xorijga ham eksport qilish ko'zda tutilmoqda. Loyihamiz innovatsion shaklga ega bo'lib, uni yanada takomillashtirish talab etiladi...

Barcha iqtidorli tengdoshlari kabi yangi-yangi yutuqlarni qo'lga kiritish, yurtimiz iqtisodiy rivojiga munosib ulush qo'shish maqsadida astoydil izlanayotgan Jahongirga ijodiy parvozlar tilaymiz.

Feruz JALILOVA





Erklarda haqiqat
Yashar ekan bezavol,
Hamroh xayr-u saxovat,
Adolaparvar bir chol.
Haqida men sizlarga
Aytib bergim kelyapti.
Har bir najot izlarga,
Ravo ko'rgim kelyapti.
O'zidan yordam so'rab,
Kelganga ko'maklashar.
Ayrofn mehr o'rab,
Chol baxtiyor, shod yashar.
Uning uch o'g'li bo'lib,
Va ikki hovli, bir bog',
Ularga taqsim qilib
Bermogqa qiyналgan chog'.


QJLJLJTBXHO TOSH

Tong ogarar nasiba sochib,
Qorlarida gulning isi bor,
Oqarmaydi onalar sochi,
Go'daklarning hur nafasi bor.
Ul Pahlavon Mahmuddan darak,
Eiga najot alplar qarashi.
O'zbekiston bo'ir, sheryurak
Bolasiga turar yarashib.

Askarlarning ko'zida
Oshyon qurgan faxr, fitxor
Ishq olovi portlab yuzida,
Vujudida tantana, vigor.
Mustaqillik yo'lida sobit
Qadam tashlar mag'rur, mardona.
Uning shahdam gadamlaridan
Gullar unar, toshar durdona.
O'z qur'olli kuchlarini
Tashkil etgan kunga tasanno.
Tinch va xotirjamligimizni,
O'ylar zotga ming hamd-u sano.
Har bir ozod mamlakat uchun
Eng asosiy vazifadir bu.
Oqil odam, hur millat kuchin
Ko'rsatmogqa ham sifadir bu.
Ne-ne bosqin va xoinlarni
Ko'rgan xalq tinch tug'in ko'tardi.
Qurib Tinchlik go'rg'onini chin,
Askar bo'lib safda o'tardi.
Onalarning ko'z yoshi emas,
Shod, baxtiyor tabassumidan.
Vatan xizmatida har nafas
Bo'lib kuchga to'lishtar zimdan!
O'na tuprog, chin maskan deya,
Ta'lim olgan, tarbiyalangan.
Har xil g'arazlardan himoya
Qilmoq uchun kuchlangan, yongan.

Umida ABDUAZIMOVA

Sehrli tosh



Tong yulduzi – 2011

Nashrga tayyorlaganlar:

T.HAYIT,
F.JALILOVA,
F.ADILOVA,
YU.ABDULLAYEV,
M.UBAYDULLAYEVA,
N.ABDULLAYEVA,
Z.MAMATQULOVA,
F.SHOYODGOROV,
O.VOSIXONOV (rassom).

«Tong yulduzi»
Toshkent – 2011

YARASHIB

O'zbekiston eng qudratli, boy!
Bolalarcha bu suhbatdan shod
Xuz-ko'zlarida balqib turar oy,
Aytimg, bu yurt qayer,
qaysi joy?
Bolalikda senga tegishli,
Har neki bor, bog'asan ishqili,
Senga yaqin insonlar bart
Xurram erur, yurmas tashvishli,
Aytimg, bu yurt qayer,
qaysi joy?
Bu beg'ubor tasavvurlardan,
Ulg'aytirgan el-g'ururlardan,
Qalbingni zabt eigan Vatanim!
Bahramanda baxt, sururlardan!
Aytimg, bu yurt qayer,
qaysi joy?



Ishtiqol nafasi quf urib,
Kundan-kun gul ochar Vatam bu!
Xer-u ko'kni quyosh kuldirib,
Bemimnat nur sochar Vatam bu!
Kelajagi barkamol avlod
Yigit-qizlar go'lida zamon,
Hamma millat bunda yashar shod,
Baxt, tole yuz burar u tomon.
Bu Vataming quyoshin emib,
O'sgan borki, qalbida imon,
Xuragidan yorug' ishq tomib,
Yaratmogga yaralar imkon.

TA'TLILNING BOSHLANDI

Bahor senga xalta berar, deyishar,
Yoz uni to'ldirishga berar harakat.
Qanotim deb seni behad suyushar,
Ularga yondashsang, bilsang barakat!

Bolajon, uyg'otar seni saharlar
Buloq suvlariga chayilgan, tiniq,
Onang qanotiga kirgan mahallar,
Otangning yurakdan kulgani aniq.

Uzumning toklari ostida so'ri,
Barglarda bir nima yaraqlamoqda.
Sening kitobingni qushchalar ko'rib,
Yozning shamollari varaqlamoqda.

Dalalar qo'ynida yovvoyi gulga
Uchib, qo'nib o'ynar nafis kapalak.
Sen shoshil, sen ochil, anvoyi dilga
Iforlar ufursa qovun, handalak.

Ey, sen kelajagi tong osmoniday,
Nurli va musaffo bolajon, sevin!
Senga yozning o'tli nafasi nonday,
Yoqimli qutlug' va muborak kelsin!



2

Oxiri, o'g'illarin
chorlab der: Men
gardingim.
Sizga bog'im, hovlimni
Bersam g'andan artdim.
O'zlaringiz o'zaro
Kelihsib, bo'lisinglar.
Mustaqil turib ro'zg'or,
Chinqib, to'lisinglar.
Orasi - tinchlik talab,
Ular gulog' solmabdi.
Har bir bog'ni tilab
Hech kelisha olmabdi!
Shunda chol: «Dunyo kezib,
debd, qimmat tosh
toping.
Bog'imni bitim tuzib,
O'shanga beray, choping!»
Kun o'tib misli quyosh,
Porlab orzu o'yida.
To'ng'ich o'g'il yoqut tosh
Bilan kelimish uyiga!
O'rancha o'g'il esa,
Dur tosh bilan qaytibdi.
Tezrog' ukangiz kelisa
Ish hal deb chol aytibdi.



Deb notovon Bo'rini
U tepib cho'ziltirdi.
«Sen bo'lib ber barini»,
Deb Tulkiga o'kirdi.

«Ulush taqsimlash mening,
Haqqim emas, sultonim.
Biz ne deymiz, sizchalik
Faxnim yetmas, sultonim?»

Menga qolsa bu quyon
Sizga bo'lsin nonushta.
Ho'kizni yersiz oqshom,
Echkini esa tushda!»

«Mana buni qarang-a, —
Deydi Arslon xursand, shod.
Qanday keldi kallangga,
Oqilona taqsimot?»

Tulki der: «Aql bilan
Yashayman umrim qo'rib.
Haddidan oshgan Bo'ri
Ko'rguligini ko'rib».



15

Qanot bo'ldi, madad berdi ustozim
parvozimga,
Qomat kerdim, ohang terdim ustozimdan
sozimga.
Sozimning ul pardalari rang-o-rangdir,
tarangdir,
Bu taranglik jo'rlik istab boqadi
ustozimga.
Ustoz bergan o'g'ilari tillolarga teng
ekan,
Ul tillolar jarang berar har lahza
ovozimga.
Mehr bilan ardoqlaydi, avaylaydi
onamdek,
Qanoatga ham o'rnatgan sabr tilab ozimga.
Saratimning uning bilan tarovati,
jilvati,
Iltiq hislar joyladi u qahraton
ayozimga.
Ustozimni tilga olsam, bola bo'lgim
keladi,
Bola kabi lol boqaman hamon buyuk
ustozimga.



USTOZIM

Hoiamtoylik qilibdi,
Ishlab topgan puliga
Sigir olib kelibdi.
Bundan butun oila
Unga hamd o'qishibdi.
Bosh qo'yib yelkasiga
Ko'z yoshi to'kishibdi.
Kenja o'g'il otasi
Huzuriga shoshibdi.
Qimmat tosh topolmadim,
Demogqa oshiqibdi.
Ziryak oia o'g'ilga,
Termulib quvonardi.
Kenjaning yelkasida
Rahmat yoshlar yonardi.
Yo'lda bo'lgan ishlardan,
Oia bo'lib xabardor.
Debd, sevinch yoshlardan,
Qimmatbaho nima bor?
Go'zal bog' muruvvati
Kenjatoyga buyurstin.
Kichikni yo kattami,
Undan dars olib yurstin.
Mehr bilan ekitgan,
Tayoqdan chiqmas tikam,
Yaxshilikni farz bilgan,
Odandan el shod ekan!



TARK ETMASA BO'LGANI

She'r kechasi bo'ldi bu kecha,
She'rim bilan dardlashdim bu tun.
Mizg'ib ham olganim yo'q picha,
Ilhom keldi uyqudan ustun.


Mayli, shunday tunlarim o'tsin,
Mayli, uyg'oq qarshilay tongni.
Mayli, uyqu meni tark etsin,
Ilhom tark etmasa bo'lgani!

Yaxshi she'rlar yozayapman, deb,
G'ururlanib yashamay aslo.
Hozir uni bezayapman, deb,
O'z-o'zimga aytmay tasanno!

Aslida she'r nimadir o'zi,
Yoniq dilning tarjimonimi?
Bir paytlar cho'g' bo'lib so'zi
Maqtaganda barcha «moli»ni.

Men shuncha ko'p sabrni qaydan
Topdim deyman she'rimni o'qib.
Men shuncha ko'p jabrni qanday,
Tortyapman so'z marjonin to'qib?..

O'zing kechir, past-baland tushib
Yozgan har harf, har imlom uchun.
Ba'zan shunday ketaman jo'shib,
Kechir, ko'r va kar ilhom uchun!..



TOVUSNING GO'ZALLIGI

Tovusning go'zalligi
O'ziga dushman, derlar.
Yulib go'zal patini
Jonini og'ritarlar.

Tovus ham o'z patini
Yular, tinchiy qolay deb.
Tark etmas odatini,
Uzoq umr g'amin yeb.

Kim kitob varag'iga,
Qo'yib yurar bu patni.
Ko'z-ko'z qilib shodlanar,
Kim bu rangdor
«davlat»ni.

Yelpig'ichga aylangan
Patdan lazzat topsa kim.
Ayting, g'am chekar tovus
Mangu ko'zin yopsa kim?!



BUVIM ERTAGI

Buvim ertak so'ylar har
kecha,
O'sha aziz tovushda
mayin.
Ertak so'ylar ekan bir
necha,
Yana, deyman, yana
tinglayin!

Shodon so'zlar, goh ko'zda
yoshi,
Oshiqnlarning hijron,
visolin,
Ishq savdosin kechirgan
boshi,
Tushunadi oshiqqlar
holin...

Tushunadi
Tushunmog'imni,
Bola yoshda,
beboshligimda.
Ko'rmay deydi dard-u
dog'imni,
Ulg'aytirib ishqni
ilgimda...

IMTIHONGA CHOG'LANGAN YOSHLAR...

Balki siz ham tongda shirin uyqungizdan voz kechib, jahon ahlini lol qoldirgan futbolchi akalaringizni ko'rishga oshiqqandirsiz. Yoki ular dunyoning mashhur jamoalarining bosh murabbiylariga yoqib qolganliklarini ham eshitgandirsiz? Chunki o'smirlarimizning jahon

futbolchimizni ular bag'rilariga bosib, unsiz sevinch yoshini to'kishar, o'zbek bolalari katta jasorat ko'rsatganliklarini eslab, akalaringizni yuz-ko'zlaridan o'pib, ardoqlashardi.



Futbolsevar bolajonlar uchun imtihonlar besh kun davom etdi.

Darvoqe, xuddi shu kunlari o'smirlar terma jamoamiz bolalari Meksika yashil maydonlarida ertaknamo o'yin ko'rsatib, O'zbekiston nomini tillarda doston qilishardi. Ularning qutlug' g'alabasi tufayli yurtimiz bayrog'i Meksika stadionlari uzra hilpiradi. Abbas, Temur, Sardor, Bobur va G'anisher akalaringiz kabi olovqalb yigitlarimiz shiddat bilan to'p surdilar. Ular jahonni ko'rди, jahon esa ularni. Futbol ostonasiga qadam qo'yan bu akalaringiz ham xuddi sizlardek yashil maydonga tong saharlab kelishar, sport deb atalmish mashaqqatli mehnatning kundalik tartibiga o'rganishgandi. Natija esa yomon bo'lmadi. Ularning maydonda millat sharafi uchun kurashganlarining guvohi bo'lgan yurtdoshlarimiz, qolaversa, meksikalik muxlislar ham faxrlanib yig'lashdi. Shu yoshidanoq, xalqimizga olam-olam quvonchlarni hadya etayotgan akalaringizdan bugun O'zbekiston xalqi behad minnatdor. Hali ularni oldinda ulkan g'alabalarga kutmoqda.

Kuni-kecha poytaxt aeroportida bayramona shukuh hukmronlik qildi.

Meksikada bo'lib o'tgan jahon chempionatidan yorug' yuz bilan qaytgan o'smirlar terma jamoamiz a'zolarini kutib olar ekanmiz, g'ururdan ko'nglimiz osmon bo'ldi.



championatidagi yutuqlari nafaqat O'zbekistonni, balki dunyoni ham zabt etdi.

Ammo urug'vayliklarga qarshi o'yin bolalarimizni xafa qildi. Lekin delegatsiyamiz a'zolari bilan Meksikada xayrlashish onlari kelganida, bizning yoqimtoy bolajonlarimiz bilan hech kimning xayrlashgisi kelmasdi. Har bir

Poytaxtimizning mashhur ROZK binosida tong sahardan ko'nglida bir dunyo quvonch, hayajon bilan futbolchi bolalar va ularning ota-onalari jam bo'lishgan. Sababi, iyulning birinchi kundan navbatdagi terma jamoamizga yangi iqtidorlar saralab olindi. Sinov imtihonlarida qatnashish uchun yetmish nafardan ziyod o'n uch yoshli (1998-yilda tug'ilgan) bolalar ROZKga hujjat topshirishgandi.



HAQIQATNING YORQIN QUYOUSHI

Demak, O'zbekiston futboli Meksikada yana bir katta dovondan oshdi.

Keling endi, bir yil avvalgi voqeani eslaylik. Poytaxtimizda jahon chempionati uchun saralash bosqichi vazifasini o'tagan Osiyo chempionatida o'smirlar terma jamoamiz ketma-ket g'alabalarni qo'lga kiritdilar. Ammo finalga qadar yetib borgan yosh futbolchilarimiz hakamning noto'g'ri qaroridan mag'lubiyat alaminu chekkandilar...

Haqiqat bor ekan, Meksikada bo'lib o'tgan jahon chempionatidagi dastlabki uchrashuvdayoq o'smirlarimizni Osiyo chempioni bo'lishdek baxtdan ayirgan Shimoliy koreyalik o'smirlar jamoasi atigi ikki ochko to'plab, mundial bilan xayrlashishdi. Bu voqeani ko'rib, nohaq hakamning biroz bo'lsa-da, vijdoni qiynalgandir. Mayli, nima bo'lganda ham O'zbekistonda bolalar futboli maktabi o'z faoliyatini shiddat bilan davom ettiryapti. Bu borada bolalar orasidan iqtidorli futbolchilarni saralab olishda bolajon rahbar «Paxtakor» futbol klubining vitse-prezidenti Samvel Babayanning xizmati beqiyosdir. Har bir boladagi noyob qobiliyatni ilg'ab olishda unga teng keladiganini topish qiyin.

MAYDON BO'SH QOLMAYDI

Gapni Respublika Olimpiya zaxiralari kollejiga kirish imtihonlaridan boshlab, bizni Meksikaga safarga chorlagan jurnalist opamizga nima bo'ldi, deysizmi? Hayron bo'lmang, axir Meksikadagi jahon chempionati va kollejdagi sinov kunlari bir vaqtga to'g'ri kelib qoldi-da!

Afsuski, besh kun davom etgan sinovdan 13 yoshli tengdoshlaringizning hammasi ham muvaffaqiyatli o'ta olishmadi. Futbolchi bo'laman, deb kunlarni, yillarni, maydonlarda o'tkazgan ayrim tengdoshlaringiz ko'zlariga yosh oldilar. Ularni yupatishga so'z topish mushkul edi. Ammo maydon kuchlilarni tanlaydi. Niyatimiz, yanada kuchli bo'ling, yana to'rt yildan so'ng bo'lib o'tadigan jahon chempionatida O'zbekiston nomini xuddi akalaringizdek dunyoga mashhur etishga oshiqing. O'shanda xalqimiz sizga peshvoz chiqadi.

BU KUNLARNI UNUTIB BO'LMAS...

«Mehnatning tagi rohat». Mayli, bu maqolni ko'p bora eshitgan bo'lsangiz ham bugun yana eshitavering. Axir Meksikada zafar quchgan bolalarimizni muxlislar bejiz yaxshi ko'rib qolishmadi, ularning har biri bilan qo'l olishib, faxrlanishmadi. Bularning zamirida mehnat yotgani barchamizga oydek ravshan-ku! Chexiya darvozasiga Abbas Maxstaliyev tomonidan kiritilgan golning nishonlanishini eslang. Ravshanjonni quchoqlab olgan Abbasni-yu, singan oyog'ini quchib olgan cha uning quvonchiga sherik bo'lgan Javlonlarni endi unutib bo'ladimi?! Timur akangiz kunning eng chiroyli goliga mualliflik qilganini, Abbosiz bir o'zi o'ynaganini eslaysizmi? Qanday qilib unuta olamiz bu o'yinlarni?

Chindan-da, o'smirlarimizning nomlari tarixga kirdi. Dunyo ahliga o'zbek futbolchilari nimalarga qodirligini ko'rsatishdi. Bizni esa ertangi g'alabalarga ishontirishdi.



1. Quyidagi hikmatni kim aytgan?

«Olamda bilimdan kuchli narsa yo'qdir».
A) Aflotun;
B) Abu Rayhon Beruniy;
D) Sakkokiy.

2. «Yuz» so'zining sinonimlarini yozib ko'ring. Kim qancha topadi? Masalan: yuz, aft, bashara...

O'ZINGNI SINAB KO'R

4. Esingizdami, Mirzo Ulug'bek bobongiz nechta yulduzni aniqlab, «Ziji Ko'ragoniy» asariga kiritgan edi?
A) 1018 ta;
B) 1016 ta;
D) 1015 ta.

3. «O'z-o'zini tarbiyalash» deganda nimaning tushunasiz? Shu to'g'rida yozib yuboring. Eng yaxshi insholaringizni gazetamiz sahifalarida o'qiysiz.

BILASIZMI?

Dunyoda eng issiq joy, bu Liviyaning Al-Aziziya degan joyi bo'lib, bu yerda yozda havo harorati 57,8 darajani tashkil etadi.

* * *

Eng sovuq joy esa Antraktidada joylashgan. U yetib bo'lmas qutb deb ataladi. Bu yerdagi havo harorati qishda salkam 60 darajani tashkil etadi.

* * *

Sayyoramizda mavjud chuchuk suvning zaxirasi uch million kilometrni tashkil etadi. Uning katta qismi bir kilometr yer ostida joylashgan.

QISH SOVUG'IGA CHIDAMLIMISIZ?

Sarlavhani o'qib, hozir yoz-ku, halitdan qish haqida bong urishga hojat bormi, deya taajjublanishingiz tayin. Lekin biroz shoshilmang, keyinroq hammasi oydinlashadi. Ayni kunlarda saraton oyi davom etmoqda. Uning 22-iyundan boshlanib 22-iyulda yakuniga yetishini yaxshi bilasiz. Undan so'ng, ya'ni iyulning oxirgi o'n kunligi va avgustning yigirma ikkinchisigacha Asad oyi davom etadi. Hozir siz bilan saraton oyining xislatlari haqida so'z yuritamiz.

Aziz bolalar!

Yuqoridagi voqeada juda muhim va katta muammolar yo'q, ammo bundan bee'tibor o'tib ham bo'lmaydi. «Saraton oftobi bilan hazillashib bo'lmaydi», degan gapga e'tibor qarataylik. Avvalo, aytish kerakki, saraton oftobining foydali tomonlari ko'p:

tabiatdagi hamma narsani qiyomiga yetkazadi;

tanani chiniqtiradi, qish faslida sovuqqa chidamli bo'lishiga yordam beradi;

singan suyaklarning bitishi tezlashadi;

ba'zi kasalliklarning asoratlari shu oyda chiqib ketadi;

shifobaxsh qum, loy va issiq suvlarning ta'siri oshadi;

dorivor o'simliklar pishib yetiladi va hokazo.

Lekin shu bilan birga, saraton oftobining odam tanasiga ziyoni ham

MULOHAZA QILIB KO'RING

bor, chunki, o'tob urishi, teri kuyishi mumkin, shu bois ham Qodir bobo nevarasiga tanbeh berdi.

Endi Qodir boboning «Suvni makruh qilma», degan gapiga e'tibor qarata-digan bo'lsak, bu oyda ham va boshqa paytlarda ham suvni toza tutish har birimizning burchimiz. Ajdodlarimiz bizgacha suvni toza yetkazib kelishgan. Shunday ekan, bu bebaho ne'matni biz ham kelajak avlodlarga musaffoligicha yetkazishimiz lozim. Suvga chiqindi tashlayotganlarni ko'rganingizda, albatta, tanbeh berishni unutmang. Ifloslangan suv biz iste'mol qiladigan mevali daraxtlarga, ekin-tikinlarga yetib boradi va oqibatda turli kasalliklarning yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi.

QODIR BOBO SAVOLI


Quyosh tik ko'tarilgan payt. Kamoliddin darvozadan ichkari kirganda, Qodir bobo unga tanbeh berdi:

– Boshingga biror narsa kiyib yursang bo'lmaydimi, saraton oftobi bilan hazillashib bo'ladimi?

Kamoliddin: «Hozir hamma boshyalang yuradi», degan gapni xayolidan o'tkaz-gancha oftobani olib, ariq yoniga cho'k-kalab, oyog'ini yuva boshladi.

Qodir bobo yana unga tanbeh berdi:

– Hoy, qanaqa bolasan o'zi, toza suvni makruh qilma! Gunohi azimi bor!



XALQ O'GITLARI

Yaxshi kelsa saraton, pisand emas qahraton qish ham; Saraton imkoniyatlarini qo'ldan boy bergan dehqon to'rt odam oldida ham qizarib qolishi mumkin;

Saratonda g'o'za qarichdan oshsa, kuzda xirmon toshadi;

Saratonda tok sug'orsa sohibkor, kuzda uzumi asaldan qolishmas;

Saratonda ekinga mehr bersang, kuzda barako ko'tarasan;

Bu oy davomida ekinlar, g'oyohlar, xususan, g'o'za uchun malham hisoblangan «issiq suv» oqadi. Uzum, qovun-tarvuzlar sharbatga aylanadi.

QODIR BOBO MAQTOVI

Kamoliddinning sochlari ho'l, yuzlari qizargan, bo'yinlari qoraygan. Qodir bobo unga gap qotdi:

– Saratonda cho'milishning foydasi katta, bolam! Tuproqda oyoqyalang ham yurib tur!

– Bobo, bugun ertalab «O'zbek xalq ertaklari»ni o'qidim, so'ng sigirga o't keltirdim, daryoga tushib cho'mildim, yo'l bo'yi oyoqyalang keldim, issiq tuproqda mazza qildi oyoqlarim! Qodir bobo jilmaydi.

– Ertak o'qigan bo'lsang, fikring kengayadi, cho'milib tursang, qishda shamollamaysan, issiq tuproqda oyoqyalang yurgan bo'lsang, bahoing besh, bolam!

Siz ham, aziz o'quvchim, saratonda besh baho olishga harakat qiling!



TONG YULDUZI

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchi:
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Jahongir MUSAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 33324
Buyurtma N: J 2227